



BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA FORSAYT KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Raximova Dilrabo Oktyabrovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti p.f.f.d PhD

raximova89dilrabo@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etishda olimlarning ilmiy ishlari tahlili hamda forsait texnologiyasidan uzoq muddatli kelajak strategiyasini yaratishda asosiy texnologiya sifatida foydalanishning zaruriy ahamiyatlari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. Forsait, kompetentlik, texnologik, innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalari.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning istiqboli ta'lim tizimiga bog'liq holda rivojlanadi. Ta'lim sohasidagi yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik o'z samarasini bermoqda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamon talabiga moslash borasidagi kelajak strategiyasi aniq belgilab berilgan. Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari tajribalariga asoslangan holda eng zamonaviy texnologiyalarni tadbiiq etish hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etishga oid N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyevalarning ilmiy ishlarida "innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari" to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar berilgan.

N.A.Muslimov "kompetentlik" tushunchasining mohiyati, kompetentlik sifatleri, ularni rivojlantirish yo'llari, pedagogik mahoratning tarkibiy asoslari, pedagogik kreativlikning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, o'rni va roli" to'g'risidagi masalalarni ham o'z ilmiy ishlarida keng yoritgan.



Z.K. Ismailova va M.X. Baybaevalarning ilmiy tadqiqotlari boshqaruv kadrlari, menejerlar tayyorlash sohasiga qaratilgan bo‘lib, unda “samarali boshqaruv faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, rahbarlarning samarali boshqaruv faoliyatini rivojlantirish mazmunini loyihalashtirish, ta’lim muassasalari rahbarlarining nizoli vaziyatlarni hal etishdagi boshqaruv faoliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, rahbarlarining nizoli vaziyatlarni hal etishdagi samarali boshqaruv faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari” kabi masalalar yoritilgan.

O.X.Xamidov ilmiy ishlarida rahbar xodimlar kompetentligini aniqlash, shakllantirish, boshqaruv faoliyati asoslari va boshqaruv uslublarining muammolari va yechimlari tahlil qilingan. “Zamonaviy raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonining sifat bosqichi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or boshqaruv tajribasini milliy qadriyatlarga uyg‘unlashtirish, boshqaruv kadrlari, jumladan menejerlarning kompetensiyalarini aniqlash, ularni kompetentlik sohalari bo‘yicha klasterlash, differensiyalashtirish hamda rahbar psixologik kompetentligini optimallashtirish sharoitlari” ishlab chiqilgan.

A.J.Xurramov, M.U.Maxkamova va A.I.Yusupovalarning ilmiy maqolalarida forsaytning asosiy mazmuni, forsayt ta’riflari tahlili, forsaytdan foydalanish sohalari, oliy ta’lim muassasalarida forsayt markazlar tashkil etish zaruriyati hamda forsayt markazlarning maqsad va vazifalari yoritilgan.

J. R.Ehsonovning “Korporativ forsayt texnologiyalari orqali elektron logistika xizmatlarini takomillashtirish” nomli ilmiy maqolasida respublikamizda transport xizmati sohasida logistika xizmatini strategik rejalashtirish, uni yangi bosqichga ko‘tarish va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

J.Rashidov tomonidan 2023 yilda nashr etilgan “Forsayt texnologiyalar — oliy ta’lim tizimida” nomli metodik qo‘llanmada forsaytning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida tutgan o‘rni, forsaytning muhim yo‘nalishlarini aniqlash bosqichlari, xalqaro forsayt markazlar va ularning vazifalari keltirilib, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida forsayt markazlar tashkil etish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Ta’kidlash lozimki, boshqaruvda korxonalar yoki kompaniyalar kelajagini to‘g‘ri bashoratlash, boshqaruvning barqaror va tezkor moslashuvchan uslublarini qo‘llash, uning kelajakda ham raqobatbardoshligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida boshqaruv kadrlarida forsayt kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Lekin, O‘zbekistonda iqtisodiyot va pedagogika sohaslarida forsayt texnologiya hamda bo‘lajak mutaxassislarda forsayt kompetentlikni shakllantirish masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari kam olib



borilgan. Bo'lajak mutaxassislarning yangi kasbiy kompetentliklari jihatlari ochib berish psixologik-pedagogik, texnologik va fan tayyorgarligi mazmuni bilan belgilanadi. Bu esa pedagogika nazariyasida forsait kompetentlikni rivojlantirish didaktikasi takomillashtirishni taqoza etadi.

Hozirgi davrda rivojlangan davlatlar forsait texnologiyasidan uzoq muddatli kelajak strategiyasini yaratishda asosiy texnologiya sifatida foydalanishmoqda. Masalan, Yevropa davlatlarida Boloniya jarayoni ta'lim dasturlariga asoslangan holda ta'lim kelajagini bashoratlashda forsait metodlaridan kompleks foydalanishga katta e'tibor qaratishadi va bunda oliy ta'lim muassasalari faol ishtirok etadilar. Buyuk Britaniyaning Manchester Universitetida ilmiy-texnik yo'nalishlarni bashoratlash bo'yicha forsait tizimi yaratilgan. AQShning Sigularity University universitetida Amerika aerokosmik tadqiqotlar agentligi (NASA), Soogle, YE-rlapet Ventures, Autodesk, Sisco, Kauffman Foundation va Nokia kabi transmilliy korporatsiyalar hamkorligida forsait tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Rossiyada mamlakatning ilmiy-texnologik rivojlanishidagi asosiy trendlarni bashoratlashda oliy ta'lim muassasalari faol ishtirok etishadi. Ilmiy-texnologik rivojlanish trendlarini bashoratlash maqsadida Rossiyada 2011 yilda 6 ta nufuzli Oliy o'quv yurtlari hamkorligida mintaqaviy markaz tuzilgan. Markazning vazifasi hamkorlikda forsait tadqiqotlar olib borish, xalqaro forsait markazlar bilan aloqalarni rivojlantirish, ekspertlar guruhlarini turli soha vakillari ishtirokida shakllantirish va ularning muntazam aloqalarini yo'lga qo'yish, qo'llab quvvatlash va ekspertlarni forsait tadqiqotlarga jalb etishdan iborat.

“beFORE (Becoming Future-Oriented Entrepreneurs in universities and companies) kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan Universitet va kompaniyalarda kelajakka yo'naltirilgan tadbirkorlarni tayyorlash» mavzusidagi loyihada rivojlangan davlatlar universitetlari tomonidan olib borilgan forsait – dasturlar keng va atroflicha tahlil qilingan”. Mazkur loyiha ERASMUS+ loyihasi bo'lib, Knowledge Alliance sxemasi bo'yicha moliyalashtirilgan. Loyihaning maqsadi tadbirkorlik ta'limini universitet ta'limi bilan transformatsiyalash hamda kompaniyalar xodimlarini biznes amaliyoti bo'yicha o'qitishdan iborat. Unda AQSH, Daniya, Polsha, Germaniya, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Afrika, Finlyandiya, Malta kabi davlatlar oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilgan forsait tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarining Forsait tadqiqotlar bo'yicha tajribalari uzoq muddatli, 10-30 yilga mo'ljallangan ta'limni rivojlantirish strategiyalari hamda oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini oshirishga



qaratilgan konsepsiyalar ishlab chiqishda Forsaytdan foydalanish eng yaxshi samara beradi. Bunday texnologiya asosida ishlab chiqilgan strategik konsepsiyalar standart yechimlarni takrorlamasdan kelajakdagi o'zgarishlarga moslashishga imkon yaratadi.

Ilm-fanga yiliga yuzlab millionlab dollar sarflaydigan hech bir davlat, jumladan, AQSH va Yaponiya bugungi kunda barcha ilmiy yo'nalishlarda to'liq miqyosda tadqiqotlar olib bora olmaydi. Bunday sharoitda ular eng istiqbolli yo'nalishlarni Forsayt asosida ilmiy-tadqiqotlar orqali o'rganib, ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratishadi hamda natijada o'zlarining yetakchi o'rinlarini saqlab qolmoqdalar. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda Forsayt texnologiyalaridan foydalangan holda fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi maxsus uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xorijiy universitetlar tomonidan olib borilgan Forsayt dasturlarga Adam Mitskiyevich nomli universitetning "Forsayt va strategik tahlil" dasturi (Polsha), Belostokskiy texnologik universitetining "Strategik forsayt" dasturi (Polsha), Kaliforniya madaniyat kollejining "Strategik forsayt" dasturi (AQSH), Berlin universitetining "Kelajakni tadqiq qilish" dasturi (Germaniya), Ontario madaniyat va dizayn kollejining "Strategik forsayt va innovatsion faoliyat" dasturi (Kanada), Regent'sk universitetining "Strategik forsayt" (Strategik liderlik doktori) dasturi (AQSH), Suinberi texnologiya universitetining "Bilim va Forsayt uslublari" dasturi (Avstraliya) Manchester universitetining "Forsayt san'ati va gorizontlarni skanerlash: kutish, tavsiyalar tayyorlash, fan va innovatsiyalar sohasi kelajak transformatsiyasi" dasturi (Buyuk Britaniya), Podstam universitetining "Strategik innovatsiya va kelajakni shakllantirish" dasturi (Germaniya), Turku universiteti Iqtisodiyot maktabining "Kelajakni tadqiq qilish bo'yicha magistrlik dasturi" (Finlandiya) kabi forsayt loyihalarni misol qilish mumkin.

A.D. Alekseyeva, T. V. Konyukova va T. V. Yezhovalar

"Bo'lajak menejerlar tomonidan o'quv jarayonida forsayt texnologiyasini ijobiy o'zlashtirishlari natijasida ularda boshqaruvning barqaror va tezkor moslashuvchan uslublarni qo'llash, o'zlarining shaxsiy kar'erasi va kelajagini bashoratlash orqali o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash kompetentliklariga ega bo'ladilar, bu esa kasbiy faoliyatlarida forsayt kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omili sifatida rol o'ynaydi" -deb ko'rsatib o'tishgan.

Bo'lajak menejerlarning forsayt kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish samaradorligi mutaxassislik fanlarini, jumladan "Menejment" fanini



o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida forsaytdan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak menejerlar yangi turdagi tashkilotlarda integratsiyalashishni ta'minlaydi va korxonalar yoki kompaniyaning qisqa, o'rta va uzoq muddatli rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqish, innovatsion menejmentda tizimli yondashish, yangiliklarning yashash davri konsepsiyasining mohiyati, innovatsion menejmentdagi konsepsiyalar va yondoshishlarning tavsifi, innovatsion rivojlanishning tashkiliy shakllari, "korxonadagi innovatsion strategiyani tanlash va shakllantirish, forsayt asosida korxonaning uzoq muddatli istiqbolini baholash va imkoniyatlarini interpretatsiyalash bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Рахимова Д.О. Бўлажак менежерларда форсайт компетентликни шакллантириш методикаси. //Современное образование (Узбекистан). Замонавий таълим. 2022. №3 (112). -68-74 б.

2.Рахимова Д.О., Рахимов О.Д., Отакулов У. Х. Образовательный форсайт качества и результативности самостоятельного образования. Издательство «Проблемы науки». “Вестник науки и образования” 2021 №7(110). С. 69-72.

3.Ивановский Б.Г. Цифровизация высшего образования в Европе и России: преимущества и риски // Социальные инновации и социальные науки. – Москва: ИНИОН РАН, 2021. – № 1. – С. 80–95.

URL: <https://sns-journal.ru/ru/archive/> DOI: 10.31249/snsn/2021.01.07

4.Исаченко С.Н. Баюкова С.Н. (2014) Форсайт: зарубежный и российский опыт. //Модели, системы, сети в экономики, техники, природы и обществе. №1(9). С.30-34.

5.Кнител М.В., Ларионов П.А. Использование технологии “Форсайт” в процессе обучения. //Электронный научный журнал “Наука и перспективы”. №1. 2016.

URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-tehnologii-forsayt-v-protsesse-obucheniya/viewer>

6.Ланских А.Н. Форсайт как новая методология управления развитием высшей школы. //Управленческие науки. 2011. №1. С.60-64

7.Соколов А.В. Долгосрочное прогнозирование тенденций развития образования методами Форсайт. //Вопросы образования. 2004. №3. С. 66-79.

8.Рахимова Д.О. Менежмент фанини ўқитишда форсайт технологиясидан фойдаланиш методикаси. //Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Халқаро илмий-методик журнал, БухДУ. 2022. №4.-154-156 б.